

**Umumta'lim maktablari 6-sinf o'quvchilarining 2024-2025 o'quv yilida tabiiy fanlarni  
o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari varianti**

**6 - \_\_ sinf o'quvchisi \_\_\_\_\_ F.I.SH.**

**O'quvchi to'plagan umumiy ball: \_\_\_\_\_ (maksimal ball: 40)**

**IV CHORAK ChSB II VARIANT**

**1. Metamorfik tog' jinslari qanday hosil bo'ladi? (Bilish- 2,5 ball)**

- A. Magmatik yoki cho'kindi tog' jinslarining qo'shilishidan
- B. Tuproq tarkibida zararli moddalarning to'planishidan
- C. Magmatik yoki cho'kindi tog' jinslarining o'zgarishidan
- D. Magmatik yoki cho'kindi jinslarining kamayishidan

**2. Tuproq turlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan? (Bilish- 2,5 ball)**

- A. Yirik, mayda, qumli, qora tuproqlar
- B. Qumli, gilli, unumdor, tog' jigarrang tuproqlari
- C. Qumli, mayin, yopishqoq, ko'p tuproqlar
- D. Qattiq va unumdor tuproqlar

**3. Qaysi variantda Yerga nisbatan Quyoshdan uzoqroq bo'lgan sayyoralar to'g'ri keltirilgan? (Bilish- 2,5 ball)**

- A. Yupiter, Saturn, Uran, Neptun
- B. Quyosh, Saturn, Uran, Neptun
- C. Venera, Mars, Yupiter, Saturn
- D. Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun

**4. Agar \_\_\_\_\_ elementlaridan biri buzilsa, zanjir \_\_\_\_\_, chunki qolgan element orqai tok oqadi. (Qo'llash- 4,5 ball)**

- A. ketma-ket zanjir, ishlamay qoladi
- B. parallel zanjir, ishlamay qoladi
- C. ketma-ket zanjir, ishlashda davom etadi
- D. parallel zanjir, ishlashda davom etadi

**5. Qaysi rasmlarda toshqotgan qoldiqlar tasvirlangan? (Qo'llash- 4,5 ball)**



**1**



**2**



**3**



**4**

- A. 1 va 4
- B. 2 va 3
- C. 2 va 4
- D. 1 va 3

**6. Inson faoliyatining tog‘ jinslariga ta’siri keltirilgan javobni tanlang.**

(Qo‘llash- 4,5 ball)

- A. tog‘ jinslariga qor va yomg‘irning ta’siri
- B. daryo toshib, tog‘ jinslarini oqizib ketishi
- C. tog‘ jinslarini qazib olib, qurilishda foydalanish
- D. tog‘ jinslarining zilzila ta’sirida parchalanishi

**7. Mineral moddalar yuviladigan tuproq qatlami – \_\_\_\_\_ qatlam. Shu sababli bu qatlama o‘simliklar \_\_\_\_\_. (*Chiziqlar o‘rniga bitta variantdan mos so‘zlarni tanlang*) (Qo‘llash- 4,5 ball)**

- A. juda qalin; juda kam o‘sadi
- B. juda kichik; ko‘proq o‘sadi
- C. quyi unumdar, yaxshi o‘smaydi
- D. ustki unumdar; yaxshi o‘sadi

**8. Jadvalda berilgan tuproq qatlamlarini ularning tarkibi bilan moslashtiring.** (Qo‘llash- 4,5 ball)


	Tarkibi		Tuproq qatlamlari
1	mineral moddalar	a	Mineral moddalar yuviladigan qatlam
2	o‘simliklar yaxshi o‘sadi		
3	oziq moddalar to‘plangan	b	Oraliq qatlam
4	yumshoq va g‘ovak		

- A. 1 – b, 2 – a, 3 – b, 4 – a
- B. 1 – a, 2 – b, 3 – a, 4 – b
- C. 1 – a, 2 – a, 3 – b, 4 – b
- D. 1 – b, 2 – b, 3 – a, 4 – a

**9. Modeldag‘i raqamlar qaysi osmon jismlarini ifodalaydi?**

(Qo‘llash- 4,5 ball)

- A. 1 – Yer, 2 – Quyosh, 3 – Oy
- B. 1 – Quyosh, 2 – Yer, 3 – yulduz
- C. 1 – Quyosh, 2 – Yer, 3 – Oy
- D. 1 – Yer, 2 – Oy, 3 – Quyosh



**10. Yer orbita bo‘ylab taxminan 365 sutkada to‘liq bir marta aylanadi. Marsning Quyosh atrofida aylanish davri taxminan 687 sutka. Yerning Quyosh atrofida aylanish davri Marsning aylanish davridan necha marta kichik? Javobingizni butun songacha yaxlitlang.** (Mulohaza yuritish- 5,5 ball)

- A. 2
- B. 3
- C. 4
- D. 5